



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING BUYRUG'I

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san'at maktablarining namunaviy shtat birliklarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yaxshilash hamda ushbu maktablarda bolalarni maktabdan tashqari ta'lim olishlari uchun Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san'at maktablarining namunaviy shtat birliklari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir



O. Nazarbekov

Toshkent sh.,
2024-yil "22" 05,
269 -son

Kelishilgan:

Iqtisodiyot va moliya vaziri



D. Kuchkarov

2024-yil "22" 05

**Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**



B. Musaev

2024-yil "22" 05

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirining
2024-yil "___" _____dagi
_____-son buyrug'iga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi
bolalar musiqa va san'at maktablarining
NAMUNAVIY SHTAT BIRLIKLARI**

T/r	Lavozim nomi	Qatnashchilar kontingenti	
		150 va undan yuqori	150 gacha
Maʼmuriy-boshqaruv xodimlar			
1	Direktor	1	1
2	Direktorning birinchi oʻrinbosari*	1	1
3	Direktorning oʻquv ishlari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari	1	1
4	Direktorning xoʻjalik ishlari boʻyicha oʻrinbosari	1	0,5
5	Bosh buxgalter	1	1
Badiiy xodimlar			
1	Ovozoperator	1	1
Mutaxassislar			
1	Kutubxonachi	1	0,5
Texnik va xizmat koʻrsatuvchi xodimlar			
1	Ish yurituvchi – kotiba	1	0,5
2	Liboschi (kostyumer)	1	0,5

Izoh:

* Mazkur lavozim bolalar musiqa va san'at maktablariga O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist yoki xalq artisti unvoniga ega bo'lgan xodimlar qabul qilingan holatlarda kiritiladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun alohida lavozimlarni kiritish me'yorlari mazkur namunaviy shtat birliklarining ilovasiga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi tasarrufidagi
bolalar musiqa va san'at maktablarining
namunaviy shtat birliklariga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa
va san'at maktablarining alohida xodimlari lavozimlarini kiritish
ME'YORLARI**

1. **Garderoibchi (kiyim saqllovchi)** lavozimi (*mavsumiy-5 oy*) muassasadagi garderoib xonasidagi mavjud har bir 150 ta jihozlangan kiyim saqlash joylari uchun – 0,5 birlik kiritiladi.

2. Bino, inshootlar va jihozlarni joriy ta'mirlovchi va xizmat ko'rsatuvchi lavozimlar uchun shtat birliklari quyidagicha ajratiladi:

Elektromontyor lavozimi har 700 ta yoritish nuqtalari (vklyuchatel, rozetka, korobka va muassasa balansida bo'lgan ko'cha yoritish nuqtalari) uchun (Sahna chiroqlaridan tashqari) 1,0 birlik, biroq har bir muassasa uchun 0,5 shtat birlikdan kam bo'lmagan miqdorda;

Chilangar - santexnik lavozimi suv quvurlari, kanalizatsiya va issiqlik quvvati bilan jihozlangan har 2800 kv.m maydon uchun – 1,0 birlik, biroq har bir muassasa uchun 0,5 shtat birlikdan kam bo'lmagan miqdorda;

Duradgor lavozimi maktab binosining foydalaniladigan har 3500 kv.m maydoni uchun – 1,0 birlik, biroq har bir muassasa uchun 0,5 shtat birlikdan kam bo'lmagan miqdorda;

Xizmat xonalari farroshi lavozimi binolarning ichki qismi, shu jumladan xizmat xonalari, yo'laklar, zinapoyalar, maydonini tozalovchi har 800 kv.m tozalash maydoni uchun – 1,0 birlik, biroq har bir muassasa uchun 0,5 shtat birlikdan kam bo'lmagan miqdorda kiritiladi.

3. Maktabni kecha-kunduz qo'riqlash uchun dam olish va bayram kunlari hamda ta'til davrida har bir o'rin almashish ish vaqti hisobga olingan holda – 4,5 birlik **qorovul** lavozimi kiritiladi. Bunda Maktabning hududidan tashqarida joylashgan binolar uchun alohida - 4,5 birlik qo'riqchi lavozimi kiritiladi.

4. Maktabda har 2500 kv.m qoplama to'shalgan (asfalt, beton, bruschatka) maydonini supurish uchun – 1,0 birlik **hovli supuruvchi** lavozimi kiritiladi. Qoplama to'shalgan maydon 2500 kv.m dan kam bo'lsa, 0,5 birlikdan kam bo'lmagan **hovli supuruvchi** lavozimi kiritiladi.

5. Maktabning mevali bog', gulzor va ko'kalamzorlashtirilgan 0,5 ga dan 2,0 ga gacha maydoni uchun – 1,0 birlik, keyingi har 2,0 ga maydon uchun – 1,0 birlik **bog'bon** lavozimi kiritiladi. Maktabning ijaraga bergan maydoni bundan mustasno.

6. **Avtotransport haydovchi** lavozimi balansda mavjud har bir foydalanishga yaroqli avtotransport vositasi uchun 1,0 birlik kiritiladi.

7. **Musiqa asboblarni ta'mirlovchi-sozlovchi** lavozimi maktab balansida mavjud:
har 30 ta foydalanilayotgan (yaroqli) damli cholg'ular uchun 1,0 birlik;
har 16 ta foydalanilayotgan (yaroqli) klavishli cholg'ular uchun 1,0 birlik;

har 30 ta foydalanilayotgan (yaroqli) tirnamali (щипковых) cholg'ular uchun 1,0 birlik;

har 30 ta foydalanilayotgan (yaroqli) язычковых cholg'ular uchun 1,0 birlik;

har 30 ta foydalanilayotgan (yaroqli) kamonli (смычковых) cholg'ular uchun 1,0 birlik hisobida kiritiladi.

Bunda, damli, tirnamali (щипковых), язычковых va kamonli (смычковых) cholg'ular uchun ajratiladigan shtat birliklar bolalar musiqa va san'at maktablariga o'qish uchun ota-onalar to'lovidan tushgan va boshqa budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

8. Uy-joy kommunal xo'jalik tizimiga o'tkazilmagan maktablarda isitish mavsumida **suv isitish qozoni o't yoquvchisi** lavozimi (mavsumiy 5 oyga):

lokal isitish tizimida ko'mir, torf, mazut va hokazolar bilan isitiladigan har bir qozonxonaga har bir o'rin almashish ish vaqti uchun – 2,0 birlikdan, tabiiy gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan har bir qozonxonalarda (qozonxona hajmidan qat'iy nazar) har bir o'rin almashish ish vaqti uchun – 1,0 birlikdan, avtomatik xavfsizlikka ega bo'lmagan qozonxonalarda esa – 2,0 birlikdan;

agar to'liq yil davomida issiq suv bilan ta'minlaydigan qozonxona mavjud bo'lsa, doimiy ravishda – 1,0 birlikdan;

alohida kichik qozonlari bilan isitiladigan har bir alohida manzilda joylashgan binolar majmuasiga har bir o'rin almashish ish vaqti uchun qozonlar soni 6 tagacha bo'lsa – 1,0 birlikdan, 6 va undan ortiq bo'lsa – 2,0 birlikdan;

isitish pechlari orqali isitiladigan muassasalarda har 10 dona pech uchun – 1,0 birlikdan va keyingi har 5-9 dona pech uchun qo'shimcha – 0,5 birlikdan (lekin muassasa uchun – 0,5 birlikdan kam bo'lmagan holda) kiritiladi.

9. Ushbu Me'yorlar asosida tuziladigan shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilishda, unga maktabning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar (binolar soni, musiqa cholg'ulari soni, binoning kadastr hujjatlari, maydonlar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar) maktabning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan holda ilova qilinadi.

10. Mazkur Me'yorlar asosida maktabning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga muvofiq tuzilishi yuzasidan javobgarlik shaxsan maktab direktori va bosh buxgalter zimmasiga yuklatiladi.